



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY-TEXNIK KENGASH QARORI**

2026-yil 28-avgust

№ 6-son

Jizzax sh.

KO‘CHIRMA № 6/4

Jizzax shahri

2026-yil 27-avgust

Qatnashdilar: Ilmiy-texnik kengash
tarkibidagi 37 nafar a’zodan 30 nafari va
taklif etilganlar.

KUN TARTIBI:

4. Turli masalalar:

4.3. Ustuvor yo‘nalishlarga oid ixtisosliklar bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktoranturaga (DSc) qabul jarayonida ilmiy tadqiqot ishi taqdimotiga qo‘yiladigan talablar, uni baholash mezonlari hamda apellyatsiyani o‘tkazish tartibini ko‘rib chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF–98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, **02.00.02 – Analitik kimyo** va **03.00.05 – Botanika** ixtisosliklar bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) ta’lim shakllariga qabul jarayonida talabgorlarning **ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tayyorlash, taqdim etish va baholash jarayonlarini** yagona tashkiliy-metodik talablar asosida amalga oshirish, baholashning xolisligi, shaffofligi va adolatligini ta’minlash maqsadida Universitet Kengashi

QAROR QILADI:

1. Ustuvor yo‘nalishlarga oid ixtisosliklar bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) ta’lim shakllariga qabul jarayonida ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tashkil etish bilan bog‘liq quyidagi hujjatlar:

- “**Ilmiy tadqiqot ishi taqdimotiga qo‘yiladigan talablar**” **1-ilovaga** muvofiq;
- “**Ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholash mezonlari**” **2-ilovaga** muvofiq;
- “**Ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti natijalari bo‘yicha apellyatsiyani o‘tkazish tartibi**” **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur talablar va baholash mezonlari ustuvor yo'nalishlarga oid ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktoranturaga (DSc) hujjat topshiruvchi barcha talabgorlarga nisbatan yagona, teng va shaffof tartibda qo'llanilishi belgilansin.

3. Ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholashda tasdiqlangan mezonlarga qat'iy rioya etish, har bir talabgorning natijasini tegishli baholash varaqalari bilan asoslantirish hamda

baholash natijalarining xolisligi va shaffofligini ta'minlash baholash komissiyalarining asosiy vazifasi etib belgilansin.

4. Ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti natijalaridan norozi bo'lgan talabgorlarning murojaatlari mazkur qarorning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Apellyatsiyani o'tkazish tartibi asosida ko'rib chiqilishi belgilansin.

5. Tegishli kafedra mudirlari, ixtisosliklar bo'yicha tuziladigan baholash komissiyalari raislari va a'zolari mazkur qaror bilan tasdiqlangan talablar, baholash mezonlari hamda apellyatsiyani o'tkazish tartibi bilan tanishtirilsin.

6. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan talablar va mezonlar 2027-yilgi tayanch doktorantura (PhD) va doktoranturaga (DSc) qabul jarayonidan boshlab amaliyotga joriy etilsin.

7. Tegishli kafedra mudirlari, ixtisosliklar bo'yicha tuziladigan baholash komissiyalari raislari va a'zolari ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura va doktorantura ta'lim shakllariga hujjat topshiruvchi talabgorlarning hujjatlarini qabul qilishda ularning taqdimot loyihasi Yagona elektron tizimiga yuklangan bo'lishi, bunda talabgorlar tomonidan yuklangan taqdimot loyihalariga **2026-yil 30-oktabrga qadar** tegishli o'zgartirish kiritish imkoniyati yaratilishi tartibi bilan tanishtirilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish universitetning Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori A. Jabbarova zimmasiga yuklansin.

Ilmiy-texnik Kengash raisi:



A. Jabbarova

Ilmiy-texnik Kengash kotibi:



N. Xonto'rayev